

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 330.341.1:338.45

SOHA KOMPONENTLARINING SAMARALI INTEGRATSIYASI – INNOVATSION RIVOJLANISH GAROVI**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕГРАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ОТРАСЛИ – ГАРАНТИЯ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ****EFFICIENCY OF INTEGRATION OF INDUSTRY COMPONENTS IS A GUARANTEE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT****Farhod Xushbokovich Rahimov¹** ¹Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi, bo'lim boshlig'i, t.f.d., professor**Ashiraf Muhammadiyev²**²Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi, direktor maslahatchisi, t.f.d., professor**Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy infratuzilmalarni shakllantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sohada fan, ta'lim va ishlab chiqarish innovatsion hamkorligiga asoslangan integratsiya borasida jahon tajribasi, mahalliy ilmiy izlanishlar va ishlab chiqarish korxonalari holati tahliliga amaliy yondashuvlar natijalari keltirilgan.

“Basalt Uzbekistan” klasterida soha komponentlarining (fan, ta'lim va ishlab chiqarish) ichki va tashqi integratsiyasi misolida sohalar kesimida innovatsion tafakkurni kuchaytirish, samarali innovatsion tizimni shakllantirish mazmun-mohiyati yoritilgan.

Аннотация

В статье представлены результаты мирового опыта в сфере формирования современной инфраструктуры, социально-экономического развития регионов, модернизации экономики, интеграции науки, образования и производства на основе инновационного сотрудничества отрасли, отечественные научные исследования, а также практические подходы к анализу состояния производственных предприятий.

На примере кластера “Basalt Uzbekistan” раскрыта сущность формирования эффективной инновационной системы усилением инновационного мышления, а также внутренней и внешней интеграции компонентов (наука, образования и производства) в разрезе отраслей.

Abstract

The article presents the results of world experience in the field of formation of modern infrastructure, socio-economic development of regions, modernization of the economy, integration of science, education and production based on innovative cooperation of the industry, domestic scientific research, as well as practical approaches to the analysis of the state of manufacturing enterprises.

The example of the Basalt Uzbekistan cluster reveals the essence of the formation of an effective innovation system by strengthening innovative thinking, as well as internal and external integration of components (science, education and production) across industries.

Kalit so'zlar: innovatsiya, integratsiya, soha, ta'lim, fan, ishlab chiqarish, komponent, hudud, klaster.

Ключевые слова: инновация, интеграция, отрасль, образование, наука, производства, компонент, регион, кластер.

Key words: innovation, integration, industry, education, science, production, component, region, cluster.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnoma sida “**Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiyalar bilan erisha olamiz**”, – deb bildirgan fikrlari juda chuqur ma'no va mazmunga ega [1] hamda barcha soha mutaxassislari zimmasiga qator vazifalarni yuklaydi.

IQTISODIYOT

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmonida belgilangan vazifalarga muvofiq, mamlakatimiz 2026-yilga kelib "Global Innovatsion Indeks" (GII) reytingida 56-o'ringa ko'tarilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, mazkur Farmonda innovatsion faoliyat infratuzilmasi subyektlari (texnologik parklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, ventur fondlar, innovatsiya markazlari, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar) soni 2022 yildagi 25 tadan 75 tagacha, ya'ni 3 barobarga oshirilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, innovatsion faol tadbirkorlik subyektlari (sanoat ishlab chiqarish tashkilotlarining umumiy sonida) soni 613 tadan 2250 tagacha, ya'ni 3,6 barobarga oshirilishi belgilangan. Tashqi bozorlarga umumiy eksportda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti ulushi 2,1 foizdan 6 foizgacha, xususi sektorning ishlanma va tadqiqotlarga investitsiyalari hajmi 8,2 mlrd so'mni tashkil etib, 3 barobarga oshirilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, innovatsion tadbirkorlik natijasida 25 mingta yangi ish o'rinlari yaratilishi hamda yangi texnologiyalar soni 4 barobarga oshirilishi maqsad qilingan [2].

Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatda kreativ iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat bo'lib, u yangi ish o'rinlari yaratishdan tortib iqtisodiy qiymatni oshirishgacha bo'lgan "tarmoq-hudud-ilmiy/oliy ta'lim tashkilot" uzluksiz ekotizimini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bu jarayon ilmiy-tadqiqot muassasalari (ITM) va oliy ta'lim muassasalarining (OTM) innovatsion hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Integratsiyalashgan fan, ta'lim va ishlab chiqarish mexanizmi innovatsiyalar muhandisligi, yaratuvchanlik, marketing izlanishlari va yangi texnologiyalarga e'tiborni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa innovatsion jarayonlarning samarali amalga oshirilishi va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion-korporativ hamkorlikni samarali tashkil etish borasidagi fikr-mulohazalar dastavval har bir obyektning bir butunligi, tabiat, jamiyat va inson tafakkuridagi, jumladan, fan, ta'lim-tarbiya, ishlab chiqarish jarayonlaridagi takomillashuv, ularning bir-birini to'ldirishi, "ustoz-shogird" tizimiga yondashuvda vorisilikdan innovatsiyaning kelib chiqishiga alohida urg'u berishdan boshlangan [3-9]. Mazkur jarayonda kadrlar tayyorlash milliy dasturining milliy modeli va uning komponentlari uzviyligini ta'minlash, OTM tizimida ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy ishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi modelda shaxs, davlat va jamiyat, fan, uzluksiz ta'lim, ishlab chiqarish kabi barcha komponentlarning uzviy birligi va hamkorligi, bir-birini to'ldirishi hamda muntazam ravishda muvofiqlashtirib borilishi nazarda tutilgan.

TADQIQOT METODIKASI


Sohalar komponentlarining integratsiyalashuvi va ilmiy tadqiqotlar natijadorligini kuchaytirish, fan, ta'lim-tarbiya, ishlab chiqarish jarayonlaridagi takomillashuv, ularning bir-birini to'ldirishi, "ustoz-shogird" tizimiga yondashuv holatini o'rganish, tahlil qilish, qiyoslash va mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya hamda statistik ma'lumotlarni o'rganish usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taraqqiyotning mazkur bosqichi yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan birga, ilmiy-tadqiqot faoliyatini yanada takomillashtirish, intellektual va moddiy resurslarni iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi yirik ilmiy-amaliy dasturlar va innovatsion loyihalarga yo'naltirish hamda ularni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirgan holda, shakllantirishni maqsad qiladi. Bu jarayonda ta'lim, fan va amaliyotning o'zaro uzviy aloqadorligi ta'minlanadi.

OTM va ITMlarning innovatsion hamkorligi doirasida quyidagi yondashuvlar (mos jadval shakllari asosida) ishlab chiqilgan edi. OTMlarda innovatsion guruhlar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida mutaxassislik kafedralarida yil sayin yangilanib boruvchi "Soha korxona va tashkilotlari (fan va ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va h.k.) ma'lumot banki" hamda "Ilmiy-texnik muammolarning yagona axborot bazasi"ni shakllantirish maqsadli deb belgilangan. Shuningdek, OTMlarda o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlar, ilmiy seminarlar va korporativ hamkorlik tadbirlari orqali "Namunaviy mavzular ro'yxati" ishlab chiqiladi. Ushbu ro'yxat asosida bitiruv malakaviy ishlari (BMI), magistrlik (MD) va doktorlik dissertatsiyalari (DD) yoki xo'jalik shartnomalari (X/SH) doirasida o'quv va ilmiy jarayonlar uyg'unlashtiriladi. Bir so'z bilan aytganda, OTM qabul kvotasi hajmidagi har bir bitiruvchi talaba, magistr yoki katta ilmiy xodim-

izlanuvchi tegishli mutaxassislik kafedrasida shu sohaning korxona va tashkilotlari bilan shartnomaviy aloqalar asosida ularning ilmiy-texnik muammolariga jalb etiladi. Ishlab chiqarish uchun muhim bo'lgan ilmiy-texnik muammolar esa xo'jalik shartnomasi doirasida hal qilinadi. Bunda soha muammolari qamrovida shakllangan har bir yosh mutaxassisning shu sohaga integratsiyasi jadallashadi. Ular muntazam yangilanib boradigan hududlardagi bo'sh ish o'rinlari bankidan o'z o'rnini topadi. Shuningdek, mutaxassislik kafedrasidagi innovatsion guruhga tayangan holda, korxonalarning amaliy muammolariga echim topish va investitsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Mazkur jarayonlar innovatsiyaning dunyoda, jumladan, respublikamizda ham ilmiy tadqiqotlardan boshlanishi, faol akademik va amaliy hamkorlik mahsuli ekanligi, yangilanishlarga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'lishi hamda bozor munosabatlariga asoslangan zamonaviy hayot axborot va integratsiyasiz innovatsiyani rivojlantira olmasligi isbotlangan.




1-rasm. soha komponentlarining (fan, ta'lim va ishlab chiqarish) innovatsion hamkorligi modeli

Hududlar va tarmoqlar kesimida maxsus innovatsion rivojlanish bo'limlari (yangilanish xizmati, ilmiy-tadqiqotlar yoki innovatsiyalar markazlari), ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari ("ITTKI"), laboratoriya va ustaxona tuzilmalari, prognozlashtirish va analitik departamentlari, rivojlantirish bo'limlari ("kelajak ofislari"), bilimlarni boshqarishga ixtisoslashgan tuzilmalar, texnoparklar hamda shu kabi innovatsion tuzilmalarning faoliyati yo'lga qo'yilishi ham shu maqsadga yo'naltirilgan.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga tayanib, 2019–2023 yillar davri yakunlari holatiga nazar tashlasak.


2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi 2019- yilga nisbatan 597 503,4 trln so'mga oshgan va real ko'rsatkichlarda 6,3 % o'sgan [10]. YAIM deflyator indeksi 2022 yilga nisbatan 112,7 %ni tashkil etgan.



2-rasm. 2019–2023 yillarda yalpi ichki mahsulot hajmi, trln so'm


Respublikamizda YAIM o'sishi bilan bir qatorda innovatsion korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlar, ish va xizmatlar hajmi ham mutanosib ravishda oshgan. Xususan, 2019-yilda bu ko'rsatkich 26811,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 31142,8 mlrd so'mga, 2021-yilda 27378,6 mlrd so'mga, 2022-yilda 40451,6 mlrd so'mga va 2023-yilda 55746,5 mlrd so'mga etgan.

Tahlil davrida innovatsion korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlar, ish va xizmatlar hajmi 2 barobarga oshganligini quyidagi rasmdan ham ko'rish mumkin.



3-rasm. 2019–2023 yillarda innovatsion faoliyat yuritayotgan korxonalarning mahsulot, ish va xizmatlari, mlrd so'm

Biroq so'nggi yillarda innovatsion korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, ish va xizmatlar hajmi oshgan bo'lsa-da, shu davr mobaynida innovatsion faoliyat yuritayotgan korxonalar, xususan, kichik biznes subyektlari soni sezilarli darajada kamaygan (4-rasm). 2019-yilda innovatsion korxonalar soni 3 916 tani tashkil etgan bo'lib, shundan 3357 tasi kichik biznes korxonalari hisoblangan. 2020-yilda bu ko'rsatkich mos ravishda 6771 ta va 6639 ta, 2021-yilda 3974 ta va 3875 ta, 2022-yilda 4955 ta va 3822 ta, 2023-yilda 3132 tani tashkil etgan [10].



4-rasm. 2019–2023 yillarda innovatsion faoliyat yuritayotgan korxonalar

Integratsiya va innovatsiya jarayonlarining asosiy samarasi zamonaviy biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishi, barqarorligi va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bilan belgilanadi. Bu kabi jarayonlarning amaliy boshqarilishi va ularning aniq sonli ko'rsatkichlar orqali baholanishi muhim ahamiyatga ega. Korxona yoki kichik biznes subyekting innovatsion salohiyati – bu innovatsion jarayonlarda foydalanilishi mumkin bo'lgan jami zahiralarning hisoblanadi. Bularga moddiy, moliyaviy, kadr (soha malakali mutaxassislari), axborot, tashkiliy, texnik-texnologik va boshqalar resurslar kiradi. Kadrlarning innovatsion salohiyati esa mutaxassis xodimlarning yangi g'oya va loyihalarni samarali o'zlashtirish, rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ifodalaydi.

Sohalarning uchinchi komponentlarida mavjud ishlab chiqarish holatini “Basalt Uzbekistan” klasteri korxonasi misolida ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, ushbu jarayonning mazmun-mohiyatini tahlil qilib, tegishli taklif va tavsiyalar berishga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining 2024-yil 2-apreldagi 01-03/941-son topshirig'iga ko'ra, 1–4 aprel kunlari Jizzax viloyatidagi bazalt ishlab chiqarish korxonasida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi orqali sifat hamda samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan tahliliy o'rganish tadbirlari tashkil etildi. Tashrif davomida tegishli ixtisoslik yo'nalishidagi OTM va ITlar mutaxassis olimlari “Basalt Uzbekistan” klasteri infratuzilmasi, korxona texnologik zanjiridagi texnik-texnologik quvvatlar, ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va mavjud muamolar bilan tanishdilar.

Natijada soha ishlab chiqarishi, fan va ta'lim integratsiyasi holatini tahlil qilish uchun quyidagi tartib taklif etildi:

- korxonadagi ijobiy va zaif tomonlar, imkoniyat va tahdidlarga “SWOT” tahlil uslubida aniqlik kiritish hamda ustuvorliklarni aniqlash;

- ustuvorliklarga mos ravishda tegishli OTM va ITlar (O'zR FA Materialshunoslik instituti, Toshkent davlat texnika universiteti va uning qoshidagi “Fan va taraqqiyot” DUK, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Jizzax politexnika instituti va h.k.) bilan integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish;

- OTM va ITlar ilmiy salohiyati hamda tadqiqotchilarini ta'lim, fan va ishlab chiqarish innovatsion hamkorligi doirasida korxonaning ustuvor yo'nalishlaridagi muammolarni hal qilishga jalb etish;

- korxona mutaxassislarini ustuvor yo'nalishlarda shu kungacha bajarilgan amaliy, innovatsion, startap loyihalar hamda doktorlik dissertatsiyalari natijalari bilan tanishtirish;

- ishlatilayotgan import xomashyo va mahsulotlar ro'yxatini shakllantirish hamda ularni ilm-fan hamkorligida mahalliyashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarni (magistrlik dissertatsiyalari, PhD, DSc) yo'lga qo'yish;


- hamkorlikda ishlab chiqariladigan yangi mahsulotlar va texnika-texnologiyalarning huquqiy himoyalanihi hamda sertifikatlash va standartizatsiya jarayonlariga ko'maklashish;

- integratsiyalashuv samarasi sifatida mahalliyashtirish darajasini oshirish hamda sohada maqsadli ilmiy kadrlar tayyorlanishi va malaka oshirilishiga erishish;

– korxonaning ustuvor yoʻnalishlariga investitsiya jalb qilish orqali texnika-texnologiyalarning yangilanishiga erishish;
 – import oʻrnini bosuvchi ayrim detallarni ichki kooperatsiya imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahalliyashtirish.

Mazkur tartibda soha innovatsion hamkorligini rivojlantirish, tizimli ishlashga shart-sharoit yaratuvchi umumiy raqamlashtirish platformalarini joriy etish hamda soha mutaxassislarini respublikamizda Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) va Intellektual mulk markazi hamkorligida ochilgan, innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanishini ragʻbatlantirishga qaratilgan, texnik axborotdan foydalanishni osonlashtirish va umum maʼlumotlar bazasidagi ushbu axborotlardan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida intellektual mulk obyektlarini yaratishga koʻmaklashuvchi 38 ta Texnologiyalar va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash markazlari (TIQQM) bilan bogʻlash taklif etilgan. Shuningdek, sohalararo ichki va tashqi integratsiyani rivojlantirish orqali klaster tizimiga oʻtish gʻoyasi qator ilmiy nashrlarimizda [11-19] ilgari surilgan edi.

Soha mutaxassislarining integratsion hamkorligi natijasida soha holatini tahlil qilish jarayonida namunaviy loyihalar ishlab chiqilishi asoslangan (5-rasm). Bunday loyihalar mutaxassislar jamoasi tomonidan amalga oshirilgan tahlillar, sohaga doir muammolarni aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan innovatsion echimlar ishlab chiqish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Ushbu jarayon soha talablarini inobatga olgan holda, samaradorlikni oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida qaraladi.



5-rasm. Namunaviy loyihalar

Yuqoridagi soha komponentlari integratsiyasi holatini tahlil qilish natijasida Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Materialshunoslik instituti, Umumiy va noorganik kimyo instituti, Toshkent davlat texnika universiteti, ushbu OTM qoshidagi “Fan va taraqqiyot” DUK, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Jizzax politexnika universitetidan tashrif buyurgan mutaxassis olimlar va “Basalt Uzbekistan” klasteri amaliyotchilari hamkorligida mahalliy bazalt xomashyosi asosida yangi innovatsion mahsulot va texnologiyalar yaratish hamda joriy etish yoʻl xaritasi ishlab chiqilgan.

Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, yangi turdagi, jumladan, import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, ularning qoʻllanish sohalarini kengaytirish, ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish, xodim va ishchilar malakasini oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini xamkorlikda tashkil etish kabi boʻlimlarga jamlangan 40 banddan iborat chora-tadbirlarni oʻzida jamlagan yoʻl xaritasi 2024-yil 10-may sanasi bilan Innovatsion rivojlanish agentligi rahbari bilan kelishilgan holda, “Basalt Uzbekistan” klasteri rahbari tomonidan tasdiqlangan.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimiz OTMlarini 2025-yilda rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash hamda faoliyatini takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 23-yanvardagi 21-son, shuningdek, Innovatsion

rivojlanish agentligining 2025-yil 23-yanvardagi 6-R-son buyruqlariga asosan, joylarda maqsadli va kompleks o'rganish jarayonlari amalga oshirilgan.

Har bir OTM kesimida ishchi guruhlarining o'rganishlari natijasida aniqlangan kamchiliklar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, 2025-yil uchun kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi va uni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, soha komponentlari holati tahlilini amalga oshirish mexanizmining qo'llanishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- davlat va xo'jalik organlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan jamoaviy hamkorligi asosida OTM, ITM va ishlab chiqarish o'rtaidagi integratsiya kuchaytiriladi;

- soha komponentlari integratsiyasida mavjud muammolar tahlili bilan bog'liq amaliyot hamda tegishli chora-tadbirlar shakllanadi;

- har bir komponentning vazifasi, yondosh sohalar fani, ta'limi va ishlab chiqarishi uyg'unlashuvi bilan ichki va tashqi integratsiya kuchayadi, ilm aniq soha muammolariga yo'naltiriladi hamda innovatsion muhit yaratiladi;

- ta'lim uzviyligi va uzluksizligi asosida "inson kapitali"ni rivojlantirish orqali zamonaviy fan va ishlab chiqarish yutuqlarini o'z ichiga olgan darslik, o'quv qo'llanma va o'quv-ko'rsatmalar tizimli ravishda tayyorlanadi;

- OTM va ITI mutahassisligidagi ilmiy jurnallarni jahon etakchi ilmiy nashrlari darajasiga ko'tarish ishlari jadallashadi;

- sohalar bo'yicha **muammo – ilmiy g'oya – intellektual mulk obyekti – standartlar – innovatsiya** kabi ketma-ketlikdan iborat innovatsion muhit yaratiladi, bu esa mavjud muammolarni OTM, ITM va ishlab chiqarish hamkorligida hal etishga imkon beradi;

- ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi integratsiya orqali bilimlar konsentratsiyasini ta'minlash, original ixtirolarning vorislik asosida namoyon bo'lishi, shuningdek, ularning rivojlanishi va innovatsiya darajasiga ko'tarilishi hamda klaster tizimiga o'tishiga shart-sharoit yaratiladi;

- yangi ishlanmalarga asoslangan, bilim talab qilinadigan (innovatsion) kichik korxonalar faoliyatining huquqiy asoslari yaratiladi va ulushi ortadi;

- hududlarda sohaviy **"fan – ta'lim – ishlab chiqarish"** integratsiyasini rivojlantirish maqsadida ixtirochilar, innovatorlar, biznes-jamoalarga mo'ljallangan maxsus axborotlar bazasi va boshqa axborot resurslaridan foydalanishni o'rgatuvchi konferensiyalar, seminarlar, trening va davra suhbatlari o'tkazish orqali axborot maydonchalari yaratilishida TIQQMlar roli oshiriladi, natijada foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar yanada takomillashtiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновatsion ривожланиш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида" 2022 йил 6 июлдаги ПФ-165-сон Фармони.

3. Solvell O. Clusters – Balancing Evolutionary and Constructive Forces. Stockholm: Ivory Tower, 2009. 238 p.

4. Дежина И., Киселева В. «Тройная спираль» в инновационной системе России. М.: ИЭПП, 2008. 225с.

5. Ботот С., Сатински Д. Модель «Тройной спирали» в региональном развитии Великобритании, США и России // Инновatsii, 2011. № 4. С. 43–46.

6. Ицковиц Г. «Тройная спираль». Университеты – предприятия – государство. Инновatsii в действии / под ред. А.Ф.Уварова. Томск: Изд-во Томск. гос. ун-та. систем упр. и радиоэлектроники, 2010. 238 с.

7. Иващенко Н.П., Поспелова Т.В. Процесс формирования предпринимательских университетов в России 170 // "МИР" (Модернизatsia. Инновatsii. Развитие). 2013. № 2 (14). С. 66–70.

8. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. – Т.: «Фан», 1965.

9. Саломов Ў. Спин-офф корхоналари олий таълим муассасалари иқтисоди ва нуфузини оширади. Ўзбекистонда олий таълим. ISSN 2181-3051, 2022, №2, 21-29-бетлар.

10. Статистический бюллетень за 2017-2023 гг. Государственного агентства статистики Республики Узбекистан // <https://stat.uz/ru/publikatsii>

11. Усмонов Б.Ш., Рахимов Ф.Х., Шукурллаев У.Б. Инновatsиялар ва кластерлаштириш иқтисодий тарақиёт кафолати. Монография. Т.: "Калеон" 2022. 176 бет.

12. Рахимов Ф.Х., Файзуллаев А.Н., Эргашев Ш.Ш., Сагдуллаев Б.Т. Инновatsияларга йўналтирилган жамоавий уйғунлашув. ТДИУ, "Иқтисодиёт ва таълим". 3/2018, 174-177-бетлар.

13. Рахматов М.А., Зарипов Б.З. Кластер – интерпatsия, инновatsия ва иқтисодий ўсиш. Рисола. Т.: "Zamin Nashr", 2018.

14. Усмонов Б.Ш., Рахимов Ф.Х. Интерпatsия, инновatsion муҳитни шакллантириш ва иқтисодиётни кластерлаштиришга комплекс ёндашув. Иқтисодиёт ва таълим. Т.: ТДИУ, 2019., №4. 79-86-бетлар.

IQTISODIYOT

15. Рахимов Ф.Х., Усмонов Б.Ш., Боходиров А. Интерпациялашув ва инновация муҳитнинг шаклланиши қурилиш материаллари саноати соҳаси мисолида. XI Форум экономистов. «Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов», Т.: 25 октябрь, 2019 й. 332-338-бетлар.

16. Рахимов Ф.Х., Усмонов Б.Ш., Усаров О. Озиқ-овқат саноати соҳасида интерпациялашув ва инновация муҳитнинг шаклланиши. “Озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги, ресурс, энергия тежамкор ва инновация технологиялар самарадорлиги” мавзусидаги Халқаро илмий анжуман, Наманган, Нам МҚИ, 28-30 ноябрь 2019 й. 60-65-бетлар.

17. Rahmatov M.A., Rakhimov F.X., Zaripov B.Z. и др. Cotton-Textile Cluster as a Knowledge Base for Education, Science and Manufacturing Innovation Cooperation. International Journal of Agriculture and Forestry 2018, 8(3): 124-128 DOL: 10.5923/j.ijaf. 20180803.02.
<http://www.sapub.org/journal/archive.aspx?journalid=1041&issueid=3770>.

18. Рахимов Ф.Х., Исмоилова Н.А., Ботиралиева Г.К., Комилов Х.П. Соғлиқни сақлаш соҳа ва ихтисосликларида интерпациялашув ва инновация муҳитни шакллантиришга ёндашув. Ўзбекистон тиббиёт журнали. Тошкен, 2020, №1, 9-14-бетлар.

19. Рахимов Ф.Х., Мусаева Р.А. Интерпация высшего образования, науки и производства как основа инновационного развития. Международная научно-техническая конференция «Актуальные вопросы обеспечения научно-технологической безопасности», посвященной 30-летию образования Государственного комитета по науке и технологиям Республики Беларусь. Минск, 1 декабря, 2023. 300-304-стр.